

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Oilaviy shifokorlik-1, jismoniy tarbiya, fuqarolar muhofazasi kafedrasining 14-yanvar-Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'yicha

BAYONNOMASI

14.01.2026 yil

Toshkent sh.

Qatnashganlar: Kafedra mudiri, t.f.d., prof. Shamansurova E.A., barcha kafedra hodimlari.

Kun tartibi: 14-yanvar-Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlangan tadbir o'tkazish

Eshitildi: Kafedra mudiri, t.f.d., prof. Shamansurova E.A. so'zga chiqdilar va barcha erkak xodimlarni bugungi bayram bilan chin qalbdan tabrikladilar.



Vatan himoyachilari kuni – mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, xalqimizning osoyishta hayoti uchun jonini tikkan insonlarni e'tirof etish imkoniyatidir. Bu nafaqat harbiylar uchun, balki yurt tinchligini saqlashga hissa qo'shayotgan har bir vatandosh uchun ham qadrlı bayramdir.



Keyingi yillarda olib borayotgan keng ko'lamli islohotlar tufayli Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz mustaqilligi, chegaralarimiz daxlsizligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta'minlashning chinakam kafolatiga aylanib bormoqda. Barcha qo'shin turlari zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlanmoqda. Harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy tayyorgarligi uzluksiz oshib bormoqda.



Bugun Qurolli Kuchlar safida ayol shifokorlar, ayol ofitserlar, ayol aloqa va shtab xodimlari va hokazo ko‘plab ayollar xizmat qilyapti. Chunki Vatan himoyasi ayol yoki erkaklik bilan emas, mas’uliyat bilan o‘lchanadi.

Vatanni himoya qilish barcha uchun muqaddas burch hisoblanadi. Bu burchni ado etishda yurtimizning himoyachilari bo‘lgan milliy armiyamiz va barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta’minlashda olib borayotgan xizmatini munosib baholash hamda ularga zarur shart-sharoit yaratish masalalari ham davlatimiz siyosatining muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Tadbir so‘nggida kafedra mudiri, prof. Shamansurova E.A. va barcha kafedra xodimlari kafedramiz erkak pedagoglariga mustahkam sog‘liq va oilaviy baxt tiladilar va esdalik sovg‘asi taqdim etdilar.

Kafedra mudiri, t.f.d., prof.

Shamansurova E.A.

Ma’naviyat va ma’rifat ishlari

bo‘yicha mas’ul, ass.:

Shayxova M.I.